

Mart, 2025-Yil

JADIDLARNING 1916 YILDAGI XALQ QO'ZG'OLONIDA TUTGAN O'RNI.
MILLIY HUKUMAT - TURKISTON MUXTORIYATI VA UNING FAOLIYATI.

Mehridin Yunusovich Haqqulov

mexriddinhaqqulov@gmail.com

Gulyamov Alisher Azizovich

aligulyamov1997@gmail.com

Srojeva Gulbahor Vahobovna

gulbahorsrojeva@gmail.com

Osiyo Xalqaro Universiteti

“Tarix va filologiya” kafedrası o‘qituvchilari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14984504>

Annotatsiya. Mazkur maqolada I jahon urushi davrida Rossiya imperiyasi tomonidan urushga kirish uchun O'rta Osiyo aholisining mardikorlikka olish bo'yicha Rus podshosining chiqargan qarorlariga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon hamda ma'rifatparvarlar o'zlarining orzularidagi ozod davlat qurishlari bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: Birinchi jahon urushi, Kuropatkin, Nikolay II, «Turon» uyushmasi, «Sho'roi Islomiy», «Turon» uyushmasi, yosh buxoroliklar, yosh xivaliklar, Moskva, Rossiya, «Sho'roi ulamo», Ittifoqi musulmin, Oktyabr inqilobi, Turkiston jadidlari.

Abstract. This article presents information about the uprising against the Russian Tsar's decrees on the conscription of Central Asians to the war effort by the Russian Empire during World War I, and the establishment of a free state by enlightened people in their dreams.

Keywords: World War I, Kuropatkin, Nicholas II, "Turan" Association, "Shuroi Islamiya", "Turan" Association, young Bukhara people, young Khiva people, Moscow, Russia, "Shuroi Ulema", Muslim Union, October Revolution, Jadids of Turkestan.

Аннотация. В статье представлены сведения о восстании против решений русского царя о вербовке среднеазиатских народов на войну со стороны Российской империи в годы Первой мировой войны и мечты просвещенных людей о построении свободного государства.

Ключевые слова: Первая мировая война, Куропаткин, Николай II, объединение «Турон», «Шурай Исламия», объединение «Турон», молодые бухарцы, молодые хивинцы, Москва, Россия, «Шурай улама», Мусульманский союз, Октябрьская революция, Туркестанские джадиды.

Mart, 2025-Yil

Mardikorlikka olish — Birinchi jahon urushi ketayotgan joylardagi ishlarga turkistonliklarni jalb qilish oq podshoning 1916 yil 25 iyun farmoniga muvofiq amalga oshirildi.

Bu kutilmagan tadbir, birinchidan, 1865 y. shartnomasiga zid edi. Ikkinchidan, general Kuropatkin (1848— 1925) ning xulosasiga karaganda, «aholi va ma'muriyat turar joydan tashqaridagi ishlarga mutlaqo tayyorlanmagan va bunday shoshilinch amalga oshirilgan tadbir og'ir tartibsizliklarni keltirib chiqargan». Aholi uchun ana shunday musibatli paytda jadidlarning ko'zga ko'ringan namoyandalaridan U. Xo'jayev («Turkiston mardikorlikka olish qo'mitasi» raisi) va millatparvar boy Mirkomilboy Mirmo'minboyev Rossiya jamoatchiligining e'tiborini bu masalaga jalb etish, farmonni bekor qildirish uchun Peterburgga yo'l oldilar. Davlat dumasining 1916 yil 13 va 15 dekabr kunlari o'tgan majlisida Nikolay II ning 25 iyun farmoni Rossiya imperiyasining qonunchiligida ko'rsatilgan hollarga zid ravishda qabul qilangani tan olindi.

Farmon Dumada muhokama qilingunga qadar iyun—avgust oyida jadidlar harakati orqali bir necha eshelon to'xtatib qolindi. Jadidlarning mardikorlarni qaytarishga urinishlari 1917 yil Fevral inqilobi boshlanishi bilan to'la amalga oshdi. Bu hodisa el orasida ularning obro'sini ko'tardi. Mazkur holat jadidlar ma'rifatparvarlikdan siyosiy kurashga allaqachon o'tganliklarini bildirar edi. 1917 yil Jadidchilik harakati o'zining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Fevral inqilobidan so'ng o'zbek, tatar va qozoqlar birlashishga axd qiladilar va «Turon» uyushmasi zaminida « Sho'roi Islomiya» jamiyati tuzildi (asoschilari Munavvarqori, Abduvohidqori Abduraufqoriev, U. Xo'jayev). 1917 yil 14 martda ish boshlagan bu jamiyat qishloq va shaharlarga targ'ibotchilar yuborib, ozodlik, tenglik haqida tushuntirish olib borish, saylov to'g'risida ma'lumot berish bilan shug'ullandi. Uning dasturini Munavvarqori yozgan edi. Jadidlar joylarda «Sho'roi Islomiya» tizimi yaratilishining tashabbuskori bo'ldilar. Turkistonga muxtoriyat maqomini berish harakati Turkiston mustaqilligi uchun kurashga aylandi. Turkiy xalqlarni birlashtirish g'oyasi kun tartibidan mustaxkam o'rin oldi. O'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, boshqird, tatar, turkman kabi negizi bitta xalqlarni birlashtirish va shu asosda Federativ yoki muxtoriyatli davlat qurish masalasi bo'y ko'rsata bordi. Ammo, Munavvarqori so'zi bilan aytganda, ko'pgina kishilar jumhuriyat bilan muxtoriyat o'rtasidagi farqni tushunmagan edi.

Xususan, Turkiston namoyandalari chin ma'nodagi respublikani barpo etish va uning davlat tarkibini tashkil etishga to'liq tayyor bo'lishmagan.

Qozoq va boshqird namoyandalari — Mustafo Cho'qay, Zakiy Validiy va b. Peterburg ularga hech qachon mustaqillik ham, muxtoriyat ham bermasligini sezgach, Turkistonga kelib, mahalliy jadidlar bilan birga ish boshladilar. Toshkentda «Sho'roi Islomiya», «Turon», «Sho'roi ulamo», «Ittifoqi muslimin», Qo'qonda «G'ayrat», Buxoroda yosh buxoroliklar, Xivada yosh

Mart, 2025-Yil

xivaliklardan tashqari, Samarqandda «Ittifoq», «Mirvaj ul-Islom», «Miftah ul-maorif» kabi tashkilotlar faoliyat ko'rsata boshladi. Bularning ijtimoiy-siyosiy yo'nalishini belgilashda Munavvarqori, U. Xo'jayev, M. Behbudiy, A. Zohiriy, A.Z.Validiy, Mustafo Cho'qay, Fitrat, F. Xo'jayev, U. Po'latxo'jayev, Sherali Lapin, M. Mirmo'minboyev, O. Mahmudov, Polvonniyoz hoji Yusupov, T. Norbo'tabekov va boshqalar faollik ko'rsatdilar. «Sho'roi Islomiya»ning tashabbusi bilan 1917 yil 16-22 aprel kunlari butun Turkiston musulmonlarining 1-qurultoyi chaqirildi. Qurultoy ishtirokchilari bir qancha masalalar qatorida Turkiston o'lkasining davlat maqomi masalasini ham muhokama qildilar. 1-qurultoyda Turkiston o'lka musulmonlari Sho'rosi (Kraymussovet) — Milliy markazni tashkil etishga qaror qilindi. Milliy markazga rais bo'lib Mustafo Cho'qay, unga o'rinbosarlar qilib Validiy va U. Xo'jayev saylanadi. Bu esa tashkilotlarni birlashtirish bilan birga milliy ozodlik harakatini izga solib, tashkiliy jihatdan markazlashtirar edi.

Milliy markazning 1917 yil 12 iyunda bo'lib o'tgan yig'ilishida barcha jamiyat va uyushmalarning Markaziy musulmon deputatlari sho'rosiga bo'ysunishi haqida Nizom qabul qilinadi.

Markazning maqsadi xalqning eng quyi qatlamlari — mardikor va dehqonlarga to'liq huquq berish va Turkiston musulmonlarini madaniy, ilmiy, iqtisodiy va g'oyaviy tarbiyalash edi.

1917-yil aprel-iyun oylari orasida jadidlar ko'pgina siyosiy masalalarni va ularga o'z munosabatlarini belgilab oldilar. Pirovardida hududiy muxtoriyat uchun siyosiy vaziyat pishib yetilganini anglab yetdilar. 1917 yil 1 — 11 mayda Moskvada bo'lgan butun Rossiya musulmonlarining 1-qurultoyi bergan turtki natijasida muxtoriyat masalasi yanada jiddiylashdi. 1917 yil 12-14 iyulda Farg'onada bo'lib o'tgan musulmon tashkilotlarining qurultoyida dasturiy masalalar ko'rib chiqildi. Unda «Turk Adami Markaziyat (Federalistlar)» firqasining dasturi (maromnomasi) va 22 moddadan iborat Nizomi qabul qilindi. 1917 yil 17-20 sentabrda Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston va Qozog'iston musulmonlarining qurultoyida «Shuroy Islomiya» va «Sho'roi ulamo», «Turon» va boshqa siyosiy tashkilotlarni birlashtirish yo'li bilan «Ittifoqi muslimin» siyosiy partiyasini tuzishga kelishildi. Turkistonni boshqarish shakli to'g'risidagi masala 1917 yil 26-28 noyabrda Qo'qonda bo'lgan Turkiston o'lka musulmonlarining favqulodda 4-qurultoyining diqqat markazida turdi. Muxtoriyat va mustaqillikni e'lon qilish fikrini hamma qo'llab- quvvatladi. Turkiston Muxtoriyati hukumati (raisi — Muhammadjon Tinishboyev, so'ngra Mustafo Cho'qay) tashkil qilindi. Fitrat, Cho'lpon, Hamza singari Otashqalb jadid shoirlari Turkiston Muxtoriyatini alqab, o'tli satrlar bitishdi. 1918 yil Fevralda Turkiston Muxtoriyati bolsheviklar tomonidan qonga botirilgach, Jadidchilik harakati kuchli o'zgarishga uchradi.

Mart, 2025-Yil

Sovet rejimi bilan murosas qilishni xohlamagan Turkiston jadidlarining katta qismi istiqbolchilik harakati saflarida va yashirin milliy tashkilotlarda faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, ayrimlari sovet hukumati idoralarida ish boshlashga majbur bo'ldilar. Buxoro amirligi va Xiva xonligida ahvol sal boshqacharoq kechdi. 1920 yilda qizil armiya har ikki davlat hududiga bostirib kirdi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi va Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tuzilib, jadidlar hokimiyat tepasiga kelishdi. Demak, 1920 yildan Jadidchilik harakati o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga, ya'ni sovetlar bilan murosas yo'liga qadam qo'ydi. 1920 yil 1-7 sentabrda Bokuda Sharq xalqdari qurultoyi chaqirildi. Qurultoyda qabul qilingan qarorlar Turkiston xalqlarining keyingi taqdirida muayyan rol o'ynadi. Unda Munavvarqori, Turor Risqulov, Cho'lpon, Sapimxon Tillaxonov, Rajab Muhamedov, Qudratilla Yunusov, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Obidjon Mahmudov, To'raqul Jonuzoqov, Zayniddin qori Nasriddinov, Hoji Safo Jo'raboiev, G'ozi Yunus kabi turkistonlik millat fidoyilaridan jami 90 kishi ishtirok etdi. Qurultoy ishida Turkiyadan kelgan va shaxsan Leninning o'zi yuborgan Anvar Posho ham qatnashdi. Birok, mazkur qurultoy bolsheviklarning Angliyaga qarshi qaratilgan do'q-po'pisasi ekanligi majlislarda ayon bo'ldi.

Shu bois turkistonlik 40 nafar delegat qurultoy tugagach, o'zaro kengash o'tkazib, unda «Turkistondagi sovet hokimiyatiga qarshi tashviqot ishlari»ni avj oldirishga va «Oktyabr inqilobining uch yilligi kunida umumxalq qo'zg'oloni ko'tarish»ga axd qildilar. Biroq, ularning bu rejasi to'liq amalga oshmadi.

Xulosa

Turkiston jadidlari faoliyati butun o'lkani qamraydigan, inglizlarning skauting maktab dasturiga yaqin dastur asosida ishlaydigan «Turon kuchi», «Turk kuchi», «Temur», «Izchilar», «Lochin» kabi guruhlarini tuzdilar. Bu guruhlar o'rta maktab ta'limi, hunar, san'atdan tashqari, harbiy mashqlar bilan shug'ullanib, sho'rolarga asosiy zarba beruvchi kuch sifatida ko'rinsa boshladi.

Jadidchilarning poydevori, tamal toshi – “usuli jadid” maktabi edi. Bu tabiiy, hamonki maqsad jamiyatni yangilamoq ekan, uni yangi avlodgina qilishi mumkin edi. Yangi avlodni esa, yetishtirmoq lozim. Eski an'anaviy usulda bu ishni amalga oshirish qiyin. Chunki zamon o'zgargan. U tezkorlikni talab qiladi. Ikkinchidan, bugungi o'quvchi tarix, jug'rofiya, iqtisod, fizika, kimyo, matematika kabi zamonaviy fanlarni bilishi kerak. Ilmiy fanlar, fan-texnika yutuqlari so'nggi uch-to'rt asr dunyo taqdirini boshqa o'zanga solib yubordi va Yevropani oldinga olib chiqdi.

Endi Yevropa ilm-fanini egallamasdan dunyo bilan barobar yashab bo'lmaydi. Bu ilm-fanni o'zlashtirmoq uchun Yevropa tillarini bilmoq kerak. Ayni paytda o'zlikni ham saqlamoq lozim. Din-diyonat ham zarur. Xullas, yashamoq uchun uchchala jihatni ham ushlamoq kerak bo'ladi

REFERENCES

1. Haqqulov, M. Y. O. G. L. (2022). Markaziy Osiyoda ilk diplomatik munosabatlar tarixi. *Science and Education*, 3(10), 385-389.
2. Yunusovich, H. M. (2024). Experiences Related to the Fine Fiber Cotton of Uzbekistan during the Years of Soviet Authority. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 129-132.
3. Yunusovich, H. M. (2024). The Formation, Development and Role of the High Seljuk Empire Founded by the Turkic Peoples in the Islamic World. *Miasto Przyszłości*, 53, 956-959.
4. Haqqulov, M. (2024). O 'RTA OSIYO XALQLARINING OZODLIK ORZUSI BO 'LGAN "TURKISTON MUXTORIYATI". *Modern Science and Research*, 3(12), 609-613.
5. Haqqulov, M. (2025). USMONIYLAR IMPERIYASINING TASHKIL TOPISH TARIXI. *Modern Science and Research*, 4(1), 663-672.
6. Haqqulov, M. (2024). TURKISTON OZODLIGINING JARCHILARI. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(11), 154-159.
7. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). O 'RTA OSIYO OLIMLARINING KARTOGRAFIK MEROSI. *Modern Science and Research*, 4(1), 221-227.
8. Xakkulov, M., & Kosimov, U. (2025). HISTORY OF MILITARY WORK IN THE EMIRATE OF BUKHARA. *Journal of universal science research*, 3(1 (Special issue)), 319-325.
9. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). BUXORO OCHILGAN MUZEYLARNING TASHKIL TOPISH TARIXI. *Modern Science and Research*, 4(1), 248-256.
10. Srojeva, G., Gulyamov, A., & Haqqulov, M. (2025). XVII ASRDA BUXORODA ABDULAZIZXON MADRASASINING QURILISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(1), 471-478.
11. Haqqulov, M., & Sadulloyeva, M. (2025). IMOM BUXORIYNING "AL-JOME'AS SAHIH" ILMIY AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(2), 472-476.
12. Haqqulov, M. (2025). YANGI DAVRDA AVSTRIYA (GABSBURGLAR) IMPERIYASINING IJTIMOY-SIYOSIY HAYOTI (XVI-XVIII ASRLAR). *Modern Science and Research*, 4(2), 834-842.
13. Xakkulov, M., & Kosimov, U. (2025). HISTORY OF MILITARY WORK IN THE EMIRATE OF BUKHARA. *Journal of universal science research*, 3(1 (Special issue)), 319-325.

Mart, 2025-Yil

14. Gulyamov, A. A. (2024). JAMIYATIMIZNING IJTIMOIIY-IQTISODIY, MA'NAVIY-MADANIY SOHALARIDA OILANING ROLI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(2), 149-153.
15. Azizovich, G. A. (2024). Trade Relations of Population in Bukhara Emirate, Shariah Rules and Regulations in Commercial Affairs, Partnership Relations. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 189-194.
16. Azizovich, G. A. (2024). Family-Marriage and Inheritance Relations of the Population in the Bukhara Emirate. *Miasto Przyszłości*, 53, 964-969.
17. Gulyamov, A. (2024). BUXORO MUZEYNING TASHKIL TOPISHI TARIXI. *Modern Science and Research*, 3(12), 659-667.
18. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). BUXORO OCHILGAN MUZEYLARNING TASHKIL TOPISH TARIXI. *Modern Science and Research*, 4(1), 248-256.
19. Shodiyeva, S. S., & Qamariddinova, G. A. Q. (2022). Buxoroda islomgacha bo'lgan diniy e'tiqodlar. *Science and Education*, 3(12), 219-225.
20. Akmalovna, Q. G., & Asror, A. A. (2023). Formation of Religious Ceremonies. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 4(3), 167-172.
21. Saloxov, A., & Qamariddinova, G. A. (2023). BUXORO JADIDLARINING TA'LIM-TARBIYAGA OID G'OYALARINING NAZARIY-AMALIY ASOSLARI. *SCHOLAR*, 1(28), 55-69.
22. Salokhov, A. K. (2024). THE YOUNG PEOPLE ARE FORMED, THE ENLIGHTENED-INFORMATORS OF BUKHO USE YOUR IMAGINATION STYLE BASICS. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 3(4), 16-19.
23. Salokhov, A., & Qamariddinova, G. A. (2023). SOCIO-PHILOSOPHICAL AND PEDAGOGICAL BASIS OF THE CONCEPT OF TOLERANCE. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(8), 200-213.
24. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). O 'RTA OSIYO OLIMLARINING KARTOGRAFIK MEROSI. *Modern Science and Research*, 4(1), 221-227.
25. Srojeva, G., Gulyamov, A., & Haqqulov, M. (2025). XVII ASRDA BUXORODA ABDULAZIZXON MADRASASINING QURILISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(1), 471-478.
26. Gulyamov, A., & Ashurov, D. (2025). CHANGES IN THE LIFE OF THE WORLD'S COUNTRIES AFTER WORLD WAR II. *Journal of universal science research*, 3(1 (Special issue)), 333-341.
27. Gulyamov, A. (2025). MANG 'ITLAR SULOLASI DAVRIDA DAVLAT BOSHQARUVI, TUZUMI VA ICHKI SIYOSATI. *Modern Science and Research*, 4(1), 790-798.
28. Gulyamov, A., & Xamidova, R. (2025). ABU RAYHON BERUNIY BUYUK QOMUSIY OLIM. *Modern Science and Research*, 4(2), 758-766.

Mart, 2025-Yil

29. Gulyamov, A. (2025). BUXORO AMIRLIGIDA ISTIQOMAT QILGAN MILLIY-ETNIK GURUHLAR. *Modern Science and Research*, 4(2), 1020-1028.
30. Srojeva, G. (2025). MIRZO MUHAMMAD HAYDARNING “TARIXI RASHIDIY” ASARIDA O’RTA OSIYO TARIXINI O’RGANISHDA MUHIM MANBA SIFATIDA. *Modern Science and Research*, 4(1), 531-539.
31. Srojeva, G., & Ormonova, M. (2025). BUXORO SHAHRIDAGI ARK QO’RG’ONI, SITORAI MOHI XOSA, XO’JA SAROY ME’MORIY YODGORLIKLARI. *Modern Science and Research*, 4(1), 533-544.
32. Srojeva, G. (2024). Solutions, Results And Problems Of Reforms In The Field Of Education. *Modern Science and Research*, 3(1), 782-788.
33. Srojeva, G. (2023). Lower Zarafshan Oasis Tourism Opportunities. *Modern Science and Research*, 2(10), 199-204.
34. Srojeva, G. (2024). EFFECTIVE FORMS OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION AND EDUCATIONAL WORK IN A PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTION. *Modern Science and Research*, 3(2), 247-253.
35. Srojeva, G. (2024). Strengthening The Material And Technical Base Of Preschool Education And Training Institutions. *Modern Science and Research*, 3(2), 673-681.
36. Srojeva, G. (2024). The Canadian Economy During The Global Economic Crisis. *Modern Science and Research*, 3(2), 57-63.
37. Srojeva, G. (2024). International Cooperation In The Field Of Education. *Modern Science and Research*, 3(2), 1041-1050.
38. Vahobovna, S. G. (2023). Quyi Zarafshon Vohasi Turizm Imkoniyatlari.
39. Srojeva, G. (2024). Attention Paid To Preschool Educational Institutions In New Uzbekistan. *Modern Science and Research*, 3(2), 258-266.
40. Srojeva, G. (2023). Continuity In Education-Chief Mezon. *Modern Science and Research*, 2(12), 834-839.
41. Gulbahor, S. (2023). Continuity In Education-Chief Mezon. *Modern Science and Research*, 2, 834-839.
42. Vahobovna, S. G. (2024). Canada during the world economic crisis of 1929-1933. *Ta’Lim Va Rivojlanish Tahlili Onlayn Ilmiy Jurnali*, 4(4), 48-54.
43. Vahobovna, S. G. (2024). Role of Preschool Educational Institutions in Education of a Perfect Person. *European Journal Of Innovation In Nonformal Education*, 4(3), 208-214.

Mart, 2025-Yil

44. Srojeva, G. (2024). 1929-1932-YILLARDAGI JAHON IQTISODIY INQIROZI DAVRIDA YAPONIYA. *Nrj*, 1(2), 118-128.
45. Vahobovna, S. G. (2024). XX ASR BOSHLARIDA XITONING YAPON AGRESSIYASIGA QARSHI KURASHI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(5), 264-273.
46. Vahobovna, S. G. (2024). XX ASR BOSHLARIDA XITONING YAPON AGRESSIYASIGA QARSHI KURASHI. *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING*, 5(2), 723-728.
47. Vahobovna, S. G. (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM-TARBIYA MUASSASALARIGA QARATILAYATGAN E'TIBOR.
48. Vahobovna, S. G. (2024). JAHON IQTISODIY INQIROZI DAVRIDA KANADA IQTISODIYOTI.
49. Srojeva, G. (2024). TA'LIM SOHASIDA XALQARO HAMKORLIK.
50. Vahobovna, S. G. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM-TARBIYA MUASSASALARI MODDIY TEXNIKA BAZASINI MUSTAHKAMLASH.
51. Vahobovna, S. G. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASIDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA VA MARIFIY ISHLARNING SAMARALI SHAKLLARI.
52. Vahobovna, S. G. (2023). TALIMDA UZVIYLIK-BOSH ME'ZON.
53. Srojeva, G. (2024). SHAYBONIYLAR SULOLASI DAVRIDA BUXORO XONLIGIDA IQTISODIY O'ZGARISHLAR VA IQTISODIYOTDA XALQARO MUNOSABATLAR. *Modern Science and Research*, 3(12), 895-903.
54. Vahobovna, S. G. (2024). Formation of the Uzbek Nation and Shaibani State in Abulkhairkhan's Dashti Kipchak. *Miasto Przyszłości*, 53, 1218-1219.
55. Srojeva, G. (2024). XX-ASRNING 30-YILLARIDA OSIYO MAMLAKATLARI. *Modern Science and Research*, 3(6).
56. Vahobovna, S. G. (2024). XX-ASRNING 30-YILLARIDA OSIYO MAMLAKATLARI.
57. Vahobovna, S. G. (2024). TALIM SOHASIDAGI ISLOHATLAR ECHIMI, NATIJALARI VA MUAMMOLARI.
58. Vahobovna, S. G. (2024). O'zbekiston Olimlaring Inson Falsafasi Haqidagi Qarashlari. *Journal of Innovation in Volume*, 2(8).
59. Vahobovna, S. G. (2024). O'zbekiston Olimlaring Inson Falsafasi Haqidagi Qarashlari. *Journal of Innovation in Volume*, 2(8).

Mart, 2025-Yil

60. Srojeva, G. (2025). BO'RIBOY AHMEDOVNING "TARIXDAN SABOQLAR" ASARIDA SHAYBONIYLAR DAVRI TARIXINING O'RGANILISHI. Modern Science and Research, 4(2), 1227-1236.
61. Srojeva, G., & Idiyeva, S. (2025). MANG'ITLAR SULOLASINING BUXORO AMIRLIGIDA HOKIMIYATNI EGALLASHI VA MANG'ITLAR DAVRIDA AMIRLIKDAGI IJTIMOIIY-IQTISODIY MADANIY HAYOT. Modern Science and Research, 4(2), 830-836.



MODERN SCIENCE
& RESEARCH